



## INKLUZIV TA'LIM SHAROITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IJTIMOY VA TA'LIMY MUHITGA MOSLASHISHI

**Anvarova Gulshona Alisherovna**

*Urganch RANCH texnologiya universiteti*

*Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

[gulshonaanvarova22@gmail.com](mailto:gulshonaanvarova22@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola inkluziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy va ta'limiy muhitga moslashuvini o'rganishga bag'ishlangan. Inkluziv ta'lim bolalarga teng imkoniyat yaratish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va akademik muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Maqolada bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi, ta'limiy faoliyatda qo'llab-quvvatlash strategiyalari, pedagog va ota-onaning roli hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni yengish yo'llari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Inkluziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy muhit, ta'limiy muhit, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена изучению адаптации детей с ограниченными возможностями к социально-образовательной среде в контексте инклюзивного образования. Инклюзивное образование позволяет детям создавать равные возможности, развивать социальные навыки и добиваться академических успехов. В статье анализируется адаптация детей к социальной среде, стратегии их поддержки в учебной деятельности, роль учителей и родителей, а также возможные проблемы и пути их преодоления.*

**Ключевые слова:** *Унклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, социальная среда, образовательная среда, педагогическая поддержка, индивидуальный подход.*

**Abstract:** *This article is devoted to the study of the adaptation of children with disabilities to the social and educational environment in the context of inclusive education. Inclusive education allows children to create equal opportunities, develop social skills and achieve academic success. The article analyzes the adaptation of children to the social environment, strategies for supporting them in educational activities, the role of teachers and parents, as well as possible problems and ways to overcome them.*

**Keywords:** *Inclusive education, children with disabilities, social environment, educational environment, pedagogical support, individual approach.*

### **Kirish**

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Biroq ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.


Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamaları bilan ataladi. Ya'ni millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, manbai, moddiy va ma'naviy ahvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'limdir. Inklyuziya – nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalar bilan umumta'lim maktabida ta'lim olishi Integratsiya – nogironligi bor bolalar uchun umumta'lim maktablaridagi maxsus sinf. Eksklyuziya - ta'limdan tashqarida bo'lgan nogironligi bor bolalar. Inkluziv ta'lim – bu har bir bolaga, uning qobiliyati va imkoniyatlariga qaramay, teng ta'lim olish imkoniyatini beruvchi ta'lim tizimi.

So'nggi yillarda dunyoda inkluziv ta'lim kontseptsiyasi maktab ta'limining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inkluziv muhit nafaqat bilim egallash, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini ham yaratadi. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar hamkorligi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasining Qonunning 20- moddasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi. Xalqaro va O'zbekiston tajribasiga ko'ra, YUNESKO tomonidan 1994-yilda qabul qilingan Salamanca deklaratsiyasida inklyuziv ta'lim global miqyosda e'tirof etilgan (UNESCO, 1994). O'zbekistonda esa 2021-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, inklyuziv ta'limning huquqiy asosi yaratildi (O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi, 2021). Bu sohada BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi" (2006) ham muhim hujjat hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning nazariy asosi L. S. Vygotskiyning "Yaqin taraqqiyot zonasi" nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, har bir bolaning shaxsiy rivojlanish salohiyatini ochishga qaratilgan (Vygotskiy, 1978). Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika inklyuziv





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yondashuvda kooperativ ta'lim, differensial yondashuv va reflektiv amaliyotlarga asoslanadi (Ainscow, 2005).[2 ]

Ijtimoiy muhitga moslashuv: Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi ularning psixologik va hissiy holatiga bevosita bog'liq. Bolalar o'zaro muloqot, o'yin va guruh faoliyati orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Inkluziv muhitda quyidagi jihatlari muhim: Ijobiy psixologik iqlim yaratish: Inkluziv ta'lim muhitida barcha bolalar o'zini xavfsiz, qabul qilingan va qadrlangan his qilishi lozim. Pedagoglar tomonidan mehribonlik, sabr-toqat va hurmatga asoslangan munosabat bolalarda ijobiy hissiy holatni shakllantiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Do'stona va qo'llab-quvvatlovchi muhit: Pedagoglar va tengdoshlari tomonidan mehr-muhabbat va hurmat ko'rsatilishi. Tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi Tengdoshlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatilishi, kamsitish va ajratish holatlarining oldini olish inkluziv muhitning muhim shartlaridan biridir.

Individual yondashuvning ta'minlanishi: Individual yondashuv bolaga o'z salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi. Har bir bolaning imkoniyati, ehtiyoji va qobiliyatini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish inkluziv muhit samaradorligini oshiradi.

Jamoaviy va hamkorlikka asoslangan faoliyat: Guruhli mashg'ulotlar, o'yinlar va loyiha ishlari bolalarda muloqot, hamkorlik va o'zaro yordam ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.

Ta'limiy muhitga moslashuv: Bolaning akademik vazifalarni bajarish, bilimlarni qabul qilish va o'rganish jarayoniga qo'shilishi demakdir.

Inkluziv ta'limda quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi bular:

1. Moslashtirilgan o'quv materiallari: Ta'lim jarayonida o'quv materiallarini bolaning imkoniyatlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Matnlarning soddalashtirilgan shakli, rangli vizual ko'rgazmalar, audio materiallar va amaliy mashqlar bilimlarni osonroq qabul qilish imkonini yaratadi. Moslashtirilgan materiallar bolalarning diqqatini jamlashga va o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi;

2. Qo'llab-quvvatlovchi pedagoglar faoliyati: Inkluziv ta'limda maxsus tayyorgarlikka ega pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarining ishtiroki muhimdir. Ular bolaning rivojlanishini doimiy kuzatib boradi, qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlaydi hamda pedagogik va psixologik yordam ko'rsatadi. Rag'batlantirish va ijobiy baholash orqali bolalarda o'qishga bo'lgan motivatsiya kuchayadi;

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; Zamonaviy texnologiyalar inkluziv ta'limda samarali vosita hisoblanadi. Kompyuter dasturlari, interaktiv ta'lim platformalari va multimedia vositalari interfaol metodlar bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Texnologiyalar orqali o'qitish bolalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta'lim nafaqat ta'lim olish huquqini ta'minlaydi, balki imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda to'laqonli, faol va mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, inkluziv ta'limni rivojlantirish va amaliyotga joriy etish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. ijtimoiy muhitga moslashuv bolalarning muloqot ko'nikmalari, o'ziga bo'lgan ishonchi va jamoaviy faoliyatda ishtiroki orqali shakllanadi. Ta'limiy muhitga moslashuv esa individual yondashuv, moslashtirilgan o'quv materiallari, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlanadi. Inkluziv ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik strategiyalar bolalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi hamda ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
2. Vygotskiy L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. UNESCO. (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Salamanca.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2021). Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Inkluziv ta'lim bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2021.
6. Karimova, M. (2022). O'zbekistonda inkluziv ta'limni joriy etish muammolari va istiqbollari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

